

**BERDAQ ASARLARIDAN AHMOQ PODSHO ASARINING TAHLILI
BUGUNGI KUN BILAN BOG'LIQLIGI**

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Tibbiy pedagogika va davolash fakultiteti 2-kurs 205-guruh talabasi Adashboev Imomjon Abduvohid o‘g‘li Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Pediatriya ishi va tibbiy biologiya fakulteti 4 -kurs 409-guruh talabasi Xoliqova Gullola Yoqub qizi Email: xoliqovagullola0529@gmail.com Ilmiy rahbar: Rismuhamedova Guljan Amanovna

Annotatsiya: Aadabiyotimizning xalqparvar shoiri deb nom olgan Berdaqning hayoti-ijodi, bizga qoldirgan asarlarining mohiyati, hamda bugungi kundagi Berdaq asarlarini o‘rganish qay darajada ekanligi haqida fikr mulohaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Berdaq hayoti va ijodi, dostonlar, adabiy meroslar, qo‘sishiq, qo‘lyozmalar.

Annotation: We will consider the life and work of Berdak, who is known as the patriotic poet of our literature, the nature of his works, and the level of study of Berdak’s works today.

Key words: Berdak’s life and work, epics, literary heritage, song, manuscripts.

Men turli sinov va kurashlarda toblangan, iymon-irodasi mustahkam xalqimizning aql-zakovati va azmu shijoatiga ishonaman.¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Qoraqalpoq xalqi adabiyoti tarixida juda murakkab jarayonni bosib o‘tgan adib Berdaq serqirra ijod qilgan vakillardan hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqining yozuviga asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ega bo‘lgan edi. Shuning uchun ularning adabiyoti tarixi asosan xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan bo‘lgan ertak, qo‘sishiq va dostonlardan iboratdir. Qoraqalpoq xalqining “Qirq qiz”, “Alpomish”, “Er qo‘say”, “Mast podsho”, “Shahriyor” singari dostonlari xalq orasida juda mashhur bo‘lib Qoraqalpoq xalqining og‘zaki ijodi boyligidan dalolatdir. Qolaversa, o‘zbek adabiyotining O‘rta Osiyo xalqlari og‘zaki ijodida mashhur bo‘lgan “Oshiq G’arib”, “Yusuf va Zulayxo”, “Toxir va Zuxro” kabi dostonlar ham qoraqalpoq xalqi orasida keng tarqalgan. Adabiyotimizdagi bu dostonlarning deyarli barchasida vatanparvarlik, xalqparvarlik talqinlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu g’oya ayniqsa “Qirq qiz” dostonida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Dostonda hikoya qilinishicha, sarkarda Guloyim qirq qiz va xalq bilan birgalikda Eron

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagisi nutqidan. 30.08.2020 yil

shohi Nodirshoxga hamda qalmoq xoni Surtayga qarshi jang qilib, mardlik va qahramonlik namunasini ko'rsatadilar.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida turli mavzudagi qo'shiqlar ko'p uchraydi. Shulardan eng ko'p tarqalgani "jaydari qo'shiq" deb ataladigan turidir. Bu qo'shiqlar xalq hayotining turli tomonlarini qamrab olgan bo'lib, sodda, tushunarli qilib aytilgan. Ayniqsa yoshlar orasida ko'proq tarqalgan bo'lib, unda sevgi – muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Yuqoridagi kabi yuksak shakldagi vatanparvarlik va xalqga hizmat qilish kabi yuksak mavzudagi ijodni qoraqalpoq buyuk yozuvchisi bo'lgan Berdaq ijodida ham kuzatish mumkin. Berdaq "Ahmoq podsho" nomli dostonida zolim xonlarni qattiq tanqid ostiga olibadolatsiz xonlarni va beklarni qoralaydi. Ahmoq podsho asari orqali Qoraqalpoq xalqining barcha muammolarini va butun dunyodagi insoniylik tushunchalari bo'lgan vatanparvarlik, adolat kabi g'oyalarning ulug'lanishini o'zining asari talqinida yoritgan.

Berdaqning Ahmoq podsho asarning mazmuni quyidagicha: Asarda Ahmoq podsho uzoq vaqt farzand ko'rmaydi. Keyin uning Gulim ismli xotini qizli bo'ladi. Podsho esa bundan g'azablanib, xotini va qizini yo'q qilishni buyuradi. Dono cho'ri ayol Zoraning tadbirdorligi tufayli Gulim va Gulzor omon qoladi. Podshoning qizi Gulzor ulg'aygach, otasini borib ko'radi. Ahmoq podsho esa o'z qiziga oshiq bo'lib qoladi. Qizi podsho taklifini rad etgach, uni itlarga talatib o'ldirishni buyuradi. Eng vahshiy itlar ham qizga yaqinlashmaydi. Aksincha, itlar tilga kirib, podshoni qarg'aydi. Gulzor uzoq vaqt podsho ko'zidan yashirinish maqsadida o'rmonga chiqib yashay boshlaydi. Keyin esa kelib Ahmoq podshoni o'ldiradi.

Asarning mazmunidan ham ko'rini turibdiki, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarga Ahmoq podsholarga o'xshash zolim va benomus hukmdorlar sababchi ekanligi xatto o'z qilmishidan afsuslanmaydigan zolimlar xorlikda o'lishi bilan yakunlanadi. Xullas, qoraqalpoq xalq klassik adabiyoti kechroq yozma adabiyotga ega bo'lgan bo'lsada, unda xalq hayotini haqqoniy aks ettiruvchi bir qancha asarlar yaratildi. Bu yaratilishda yuksak darajada e'tirof etiluvchi Berdaq katta ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpoq adabiyotining paydo bo'lishi va shakllanishida xalq og'zaki ijodining roli katta bo'lsa uni yozilishida birinchiliklar qatorida Berdaq ham o'z munosib hissasini qo'shgan adib hisoblanadi. Ko'pgina qo'shiqlar, latifalar, masallar, ertaklar, dostonlar qoraqalpoq xalqi shoirlari tomonidan kuyga solinib ijro etilishida ham Berdaqning o'rni beqiyosdir.

Xalq shoiri ham san'atkori, ham yozuvchi sifatida mashhur bo'lgan Berdaq doimo xalq hurmatida bo'lgan. Ikkinchidan, qoraqalpoq yozma adabiyotining shakllanishida bevosita o'zbek adabiyotining roli katta bo'lgan. O'zbek xalqi bilan yonma-yon yashagan qoraqalpoq xalqi madaniyatining vakillaridan bo'lgan Berdaq ham Buxoro va Xiva madrasalarida o'qish uchun boradi, ammo iqtisodiy va siyosiy tanglik tufayli madrasada tahsil olishiga to'sqinlik qiladi. Qoraqalpoq adabiyotida birinchilar qatorida

bo‘lib baxshichilik jarayonlarini kuyga solib ijod qilgan shoir Berdaq ko‘plab ijod jarayonlarini xalqning turmush tarzidan olib yozgan. Berdaq ijodidagi barcha jarayonlarni xalq bilan hamohang tarzda yaratgan shoirni adib sifatida o‘rganamiz.

Berdaqning ijodidagi she’rlari ham og’zaki, ham yozma shaklda xalq orasida ommalashib tarqalgan. U Qoraqalpoq dostonchiligining yirik vakillaridan bo‘lib, repertuarida “Ahmoq podsho”, dostoni xalqni ehtromiga sabab bo‘lgan. Kambag’al xalqning og’ir turmushi haqidagi she’ri “Xalq uchun”, “Soliq”, singari she’rlarni yozib o‘zining zamonasidagi ochko‘z xonlarni, beklarni tanqidiy shaklda qo‘rmasdan yoza olgan buyuk iste’dod egasidir. Berdaqning Ahmoq podsho dostonida ochko‘z podsho va yon atrofidagi poraho‘r amaldorlar, turli tovlamachilar fosh qilingan. Xotin-qizlar ozodligi mavzusiga ham daxldorlik ayni shu dostondagi she’rida yoritib berilgan. Shu bilan birga bu she’riy dostonda ko‘p xotinlilik kabi illatlar qattiq tanqid qilinadi. Berdaq yozgan illatlar bugungi zamonamizda ham mavjud va bu illatlarga birqalikda birlashib kurashish lozimligini Berdaq asarlari orqali xalqimizga va yosh avlod vakillari bo‘gan talabalarga ham yetkizish muhim ahamiyatga ega.

Boshqa adiblardan farqli o‘laroq Berdaq dostonlarida o‘scha davrdagi xalq ichidagi qahramonlarning kayfiyati qanday bo‘lganini alohida e’tiborga olgan. Xalqning ichki muammolariga qaratilgan, she’rlari va dostonlaridagi qahramonlarini jonli tasvirlashga ko‘z o‘ngida paydo bo‘lishiga izoh berib o‘tirmaydi. Aksincha, sodda tarzda oddiylik va jo‘n usulda qahramonlar hayoti she’riy tarzda o‘z aksini topgan. She’rlari va dostonlaridan olinadigan barcha xulosalarni kitobxonning o‘zi tomonidan va ichki dunyoqarashidan kelib chiqib xulosa qilishi mumkin bo‘ladi. Masalaning bu tomonini o‘quvchining o‘ziga havola qiladi. So‘zimiz oxirida Qoraqalpoq xalqining adiblari Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘lining ijodlarini va hayot yo‘llarini bugungi kun nuqtaiy nazardan chuqur o‘rganmog‘imiz, yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlarini yanada ko‘paytirishimiz maqsadga muvofiq. Adabiyotimizning buyuk namoyondasi Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan Navoiydan ruxlangan va ijodiga hamohang ijod qilgan Berdaq hayoti va ijodini targ‘ib qilish Berdaqning she’rlarini yoshlar ishtirokida zamonaviy tarzda kuylanishi, asarlaridan sahnalashtrilgan qisqa metrajli video lavhalarni tayyorlash orqali adibning faoliyatini yoritsak ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADADIYOTLAR

1. “Ma’naviyat yulduzları” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999-yil) kitobidan olindi.
2. Давкараев Н. Очерки по истории дореволюционной каракалпакской литературы?. Т., 1959.
3. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. Т. 1978.
4. Tojiboyev A. Sir qo’shiqlari. Т. 1970.
5. Berdaq. Tanlangan asarlar. Т. 1978.
6. Kaipberganov T. Gumroxlar. Roman. Т., 1978.
7. <http://www.samdu.uz/>
8. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>